

IMOM AL-BUXORIYNING “AL-ADAB AL-MUFRAD ASARINING BUGUNGI KUNDA AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Samatov X. U.

Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali

Bahodirov Dilshod
AX23-08 guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada biz- Imom al-Buxoriyning-“al-adab al-Mufrad” asarida payg’ambarimizning odob-axloq to’g’risidagi hadislarini hamda yoshlarga o’rnak bo’lishi haqida to’xtalib o’tamiz.

Kalit so’zlar: islom, din, xalifa, Qur’on, ilm, ma’rifat, hadis, kitob, ishonch.

Mamlakatimizda kamol topgan ulug’ zotlar, fozil-u fuzalolar haqida butun dunyo biladi. Biz bobokalonlarimiz bilan faxrlanishimiz hamda ularning ma’naviy me’rosini saqlab qolmog’imiz lozim. Shu ma’noda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning “Ulug’ allomalarimiz o’zlarining olamshumul kashfiyot va ixtirolarini sizning yoshingizda – ayni kuchga to’lgan navqiron chog’larida amalga oshirganlar. Siz ham, buyuk ajdodlardan ibrat olib, hayotda mo’jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak degan so’zlari ham biz yoshlarga katta turtki bo’ladi. Bizni hamisha o’ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o’zgaryapti. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim-yoshlar” degan gaplarimiz yoshlar uchun katta bir o’rnak bo’ladi deb o’ylayman.

Buxoriy, Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy) (810.21.7, Buxaro-870.31.8, Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog’i)- islom olamining yirik mutafakkiri. Muxaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi. Otasi Ismoil o’z davrining yetuk muxaddislaridan, Malik ibn Asalning shogirdi va yaqinlaridan biri bo’lib, tijorat ishlari bilan shug’illangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi bilan onasi shug’illangan. U 5-6 yoshida islomiy ilimlarni, Muxammadning hadislarini o’rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar – Doxiliy, Muhammad ibn



Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan.

Azal-azaldan muhaddislar safarga chiqmasdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan kiyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga o'tlanishi mumkin edi. Buxoriy 16yoshga yetguncha, o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi. 825 yilda Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo'l tutadi, muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashdi. Hadis ilmidan o'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa va Bag'dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslaru munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom Buxoriy hayotining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tadi. Bu haqda uning o'zi: "Misr, Iroq, Shomga ikki martadan, Basraga to'rt marta borganman. Hijozda olti yil yashaganman, Bag'dod va Kufa shaharlariga necha marta borganim hisobini bilmayman", degan ekan. U safar chog'ida ham, bir shaharda muqim turganda ham ilmini oshirish borasida tinimsiz ishlar, to'plagan hadislarini oqqa ko'chirar edi. Muallifning yozishicha, Bag'dodda istiqomat qilgan paytda ko'pincha oyning nurida ijod qilib, qorong'i kechalarda sham yorug'ida kitob yozar ekan. Ilm oshirish maqsadida Buxoriy juda ko'plab olimlardan ta'lim oladi. Nishopurlik al-Hakimning (1015 yilda vafot etgan) yozishicha, Imom Buxoriy ta'lim olgan ustozlari soni to'qsondan ortadi. O'z navbatida Buxoriy ham ko'pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso Termiziy Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o'zaro munosabatlari ibratli bo'lgan. Termiziyning yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga, Buxoriy ham Termiziyning bilimini yuqori baholab: "Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ortiqroq", deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan. Termiziy o'z ustozini va safdoshi Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda bo'lgan¹.

Muhammad ibn Ismoil Buxoriy hadis ilmidagi tengsiz xizmatlari uchun "Imomud dunyo" – "Dunyo imomi", "Hofizul kabir" – "Ulug' hofiz", "Amirul mo'minin fil hadis" – "Hadis ilmida mo'minlarning amiri" nomlariga sazovor bo'lgan zotdir. Ushbu buyuk muhaddis olimdan bizgacha boy ilmiy meros qolgan. Asarlarining

¹ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Al-Adab_al-Mufrad#cite_note-jac1-1



aksariyati bizgacha yetib kelgan. Manbalarda u kishining 24 ta asarlari borligi qayd etilgan. “Al-Jome as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “Tarixul kabir”, “Tarixul avsat”, “Tarixus sag‘ir”, “Kitobuz zuafu”, “Kitobus sunan fil fiqh” shular jumlasidandir.

U kishining shoh asari “Al-Jome as-sahih” bo‘lib, Qur‘oni karimdan keyingi eng buyuk kitob deya e‘tirof etilgan. Shuning uchun ham ushbu kitobga muhaddislar tomonidan o‘sha vaqtdan to hozirgacha juda ko‘plab sharhlar bitilgan. Biz ushbu maqolada imom Buxoriyning yana bir muhim asari “Al-adab al-mufrad” haqida qisqacha ma‘lumot ulashmoqchimiz.

Imom Buxoriyning “Jomius sahih” asarida ham “Kitobul adab” degan qism mavjud bo‘lib, muallif unda odob-axloqqa doir bir yuz yigirma sakkiz bobda uch yuzdan ortiq hadislarini zikr qiladi. Lekin odob-axloq borasida zikr qilingan hadislarini yetarli emas deb hisoblab, “Jomeus sahih”da kelgan hadislariga ustozlaridan eshitgan boshqa hadislarini ham qo‘shib, “Al-Adab al-mufrad” nomli kitobni yozganlar. Bunga odob haqida har qancha kitob yozsa oz, degan fikrda ekanliklari sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Ko‘rinib turibdiki, kitob o‘z nomi bilan odob haqidadir. “Odob” so‘zi aslida arabcha bo‘lib “ma‘duba” o‘zagidan olingan. “Ma‘duba” esa “odamlar taklif qilingan ziyofat” ma‘nosini anglatadi. “Odob” so‘zi bilan bu so‘zning bog‘liqligi shundaki, odob ham kishilar taklif qilingan ma‘naviy ziyofatdir.² Bu haqida Abu Muhammad o‘zining “Voiy” kitobida bunday deydi: “Odob kishilarni maqtagan narsalarga chaqirgani uchun “odob” deb nomlangan”.

Odobga ulamolar tomonidan juda ko‘p ta‘riflar berilgan. Jumladan Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf (rohmatullohi alayh) adabul mufradga yozgan sharhlari “Odoblar xazinasini” asarida odobga berilgan quyidagi ta‘riflarni keltiradi:

“Maqtovgaga sazovor so‘z va amalni bajarish odobdir”;

“Karamli axloqlarni ushlab odobdir”; “O‘zingdan kattani ulug‘lab, o‘zingdan kichikka mehr ko‘rsatish odobdir”.

Shu va boshqa ta‘riflar jamlanmasi haqiqiy Islom shariati qanday ekanini ifodalaydi. Odobni hozirgi kunda g‘arbga tobe o‘laroq madaniyat deyish ommalashgan. Masalan, “salomlashish odobi” deyish o‘rniga “salomlashish madaniyati” deyiladi. Imom Buxoriyning “Adabul mufrad” kitobi mana shunday muhim bir mavzuni bayon qilishni ko‘zlagan kitoblardan biridir. Kitob nomidagi “mufrad” so‘zi “fard” o‘zagidan olingan bo‘lib, “yolg‘iz” degan ma‘noni anglatadi. Bir so‘z bilan aytganda, “Al-Adab al-mufrad”ni “yolg‘izgina odob mavzusiga bag‘ishlangan

² https://en.m.wikipedia.org/wiki/Al-Adab_al-Mufrad#cite_note-jacb1-1.



kitob” deyish mumkin yoki Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining so‘zi bilan aytganda, “boshqa joyda topilmaydigan (yagona) odoblar” ham deyish mumkin³.

Hadis ilmi ustoz doktor Muhammad Fuod tahqiqiga ko‘ra “Al-Adab al-mufrad” asari 645 bobga ajratilib, ularga odob-axloq va ijtimoiy masalalarga oid 1360 hadislar kiritilgan.

Asarning yozilish uslubi muallifning shoh asari “Jomeus sahih”ga o‘xshab ketadi. Shuning uchun ba’zi o‘rinlarda Qur’oni karim oyatlari va sahobalarning so‘zlaridan ham iqtibos keltiradilar.

Yana shuni aytish kerakki, “Al-Adab al-mufrad” kitobidagi hadislar “Sahihi Buxoriy” kitobidagi hadislar darajasida emas. Alloma Yusuf Bannuriy ushbu kitobdagi hadislarning yarmi “Sahihi Buxoriy” kitobidagi hadislar darajasi bilan teng, degan bo‘lsa, qolgan yarmini “Sahihi Muslim” dan keyin to‘rt “Sunan” kitoblari (Sunani Termiziy, Abu Dovud, Nasoiy va Ibn Moja)dan yuqori turishini ta’kidlagan.

“Al-Adab al-mufrad” kitobining e’tiborli jihatlaridan yana biri imom Buxoriy “Sahihi Buxoriy” kitobidagi ba’zi muallaq hadislarning to‘liq sanadini ushbu kitobda zikr qilib ketgan. Ya’ni, ushbu kitob “Sahihi Buxoriy”ni to‘ldiruvchisi deyish mumkin. Bu bilan imom Buxoriyning sanad ilmida tengsiz ekanining guvohi bo‘ladi kishi.

Darhaqiqat, bu kitob Rosululloh alayhissalomning odoblarini o‘zida jamlagan, islomiy odob axloqlarni keng targ‘ib qilgan kitobdir.

U kishining Sahihi Buxoriy kitoblarini shogirdlari imom Firabriy rivoyat qilgan bo‘lsalar, “Al-Adab al-mufrad” kitobini Ahmad ibn Muhammad Bazzor rivoyat qilganlar.

Olimning ushbu asari dunyoning turli davlatlarida bir necha bor, jumladan, 1306-yilda Hindistonning Ora, 1309-yilda Konstantiniya, 1349-yilda Qohira kabi shaharlarda nashr qilingan. Jumladan, 1970-yilda Toshkentda ham nashr etilgan. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra ushbu nashrlar ichida hind nashri ishonchliroq sanaladi.

³JOBIR ELOV” IMOM BUXORIYNING “AL-ADAB AL- MUFRAD” ASARINING MOHIYATI”



Asar yurtdoshimiz Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan o‘zbek tiliga tarjima va sharh qilingan hamda unga “Odoblar xazinasini” degan nom berilgan. Muqaddas islom dini insonlarni hamisha odob-axloqli, madaniyatli bo‘lishga chorlaydi. Yuksak ma’naviyat namunasi bo‘lgan ba’zi odatiy ishlar borki, tez-tez takrorlangani bois kundalik odatga aylanib qolgan. Jumladan, izn so‘rash ham shulardan biri bo‘lib, uning o‘ziga xos bir qancha odoblari bor. Kimki ularga amal qilsa, ahli xonadonining hurmati saqlanadi va o‘zi tinch-xotirjam hayot kechiradi. Izn so‘rash odoblari haqida ko‘plab hadislar keltirib o‘tilgan. Ziyoli bo‘lmoqchi bo‘lgan kishi, avvalo, izn so‘rab, ruxsat berilganidan so‘ng salom berib kirish kerakligi borasida “Nur” surasining 27-oyatida bunday marhamat qilingan:

﴿يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا لَا تَدْخُلُوا بُيُوتًا غَيْرَ بُيُوتِكُمْ حَتَّى تَسْتَأْذِنُوا وَتُسَلِّمُوا عَلَىٰ أَهْلِهَا ذَٰلِكُمْ خَيْرٌ لَّكُمْ لَعَلَّكُمْ تَذَكَّرُونَ﴾

Ey iymon keltirganlar! O‘z uylaringizdan boshqa uylarga to izn so‘ramaguningizcha va ularning ahliga salom bermaguningizcha kirmang. Ana shunday qilmog‘ingiz siz uchun yaxshidir, shoyadki eslasangiz⁴.

Ushbu asar juda kam muhaddislar tomonidan sharhlangan bo‘lib, jumladan, Muhibbiddin Xatibning sharh bitgani haqida manbalarda ma’lumotlar bor. Shuningdek, Sayyid Fazlulloh Jiyloniy rohmatallohi alayhi ham sharh qilgan bo‘lib, uning nomi “Fazlullohis Somad fiy tavziyhi “Al-Adabal-mufrad”dir. Ammo, u ham to‘laqonli sharh emas edi. Balki, shorih roviylarning tarjimayi holi, ba’zi tushunarsiz hadislarning izohlarini keltirish bilan kifoyalangan. Shuning uchun ushbu kitob ahli ilmlarga qo‘llanma sifatida foyda beradi. Ammo, avom xalq uchun mo‘ljallanmagan. Muallif sharh asnosida asarning asl nusxalarini topishda qiylanganini aytadi.

Shuning uchun ham Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari “Odoblar xazinasini” nomli “Al-Adab al-mufrad”ning sharhi muqaddimasida: “Bizning sharhimiz keng musulmonlar ommasiga atalgan birinchi sharh, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz”, deydi.

Al-adab al-mufrad asari 645-bob hamda 1360ta hadisdan iborat hisoblanadi. Asarning oxirida esa “O‘zining fazlu karami bilan nixoyalatgan Alloh taologa hamdlar, Uning Rasuli Muhammad sollalloyou ‘alayyahi vassallamga durudu salavotlar bo‘lsin!” degan ma’noli gap bilan tugallangan. Menga asrda eng ma’qul kelgan hadis” Abu Bakra (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Men sizlarga gunohlarning eng kattasini aytib beraymi?" - deb uch martaba so‘radilar. Sahobiyalar:

⁴ Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-Mufrad asari”;3-4-bet.

"Ey, Rasululloh, aytib bering", deyishdi. "Alloh taologa shirk keltirish va ota-onaga oq bo'lish", dedilar. Rasululloh (s.a.v.) shu vaqtda yonboshlab o'tirgan edilar, keyin yaxshilab o'tirib oldilar: "Ogoh bo'linglar! Shu katta gunohlardan biri yolg'on gapirmoq, tuhmat qilmoqdir", dedilar. Shu oxirgi so'zlarini shu qadar ko'p takrorladilarki, men ichimda Rasululloh (s.a.v.) charchadilar, endi gaplarini to'xtatsalar ham bo'lardi, dedim". Ota-onaga oqq bo'lish - ota-onaga ozor berish, xafa qilish va buyruqlarini bajarmaslikdan iboratdir.⁵ Ularning farzandga seni oq qildim, deyishlari shart emas, dillari og'rishining o'ziyoq farzandning oq bo'lganidir. Mug'ira ibn Shu'ba (r.a.)ning kotiblari Varrod aytdi: "Hz. Muoviya (r.a.) Mug'iraga: "Rasululloh (s.a.v.) dan eshitgan hadislarindan menga yozib yubor", deb xat yozdilar. Shu xatga javoban Mug'ira: "Men Rasululloh (s.a.v.)dan eshitdim: ko'p savol so'rashdan, molni zoe qilishdan va asossiz gaplarni og'izdan og'izga naql qilib yurishdan qaytarar edilar" degan hadis-ni Mug'ira aytib turdilar va men yozib berdim" Ko'p savol so'rashdan murod biror ehtiyoj bo'lmay turib tilanchilik qilish yoki hayotda uchramaydigan voqea va masalalarni so'rash yoxud kishi o'ziga tegishli bo'lmagan behuda xabarlarni surishtirib yurish kabilardir. Ammo molni zoe qilish esa, uni noo'rin, Al-adab al-mufrad. Imom Ismoil al-Buxoriy www.ziyouz.com kutubxonasi 4 dunyo va oxirat uchun ham foydasi tegmaydigan joylarga sarflashdan iboratdir, binobarin, isrofgarchilik Alloh taolo oldida gunoh hisoblanadi.)” Menga ota-ona qanday buyuk siymo ekanini uqtirib qo'ydi⁶.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, imom Buxoriyning "Al-Adab al-mufrad" asari musulmon kishi xulqlanishi kerak bo'lgan barcha odob-axloqlar jamlanmasidan iborat kitobdir. Shunday ekan, har bir mo'min-musulmon kishi ushbu kitobni nafaqat mutolaa qilishi, balki, uni o'zlashtirib, hayotiga tatbiq qilishi kerak bo'ladi. Alloh taolo imom Buxoriy rohmatallohi alayhining islom olamiga qilgan xizmatlarini O'z dargohida qabul qilsin. Bizlarga ham ularning yo'lini tutishni nasib qilsin. Barchaga go'zal xulq, odob-axloq bilan namuna bo'lishga sazovor qilsin⁷.

"Al-Adab al-Mufrad"da Al-Imom Al-Buxoriyning, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning go'zal so'zlari va amallariga oid bir nechta hadislar jamlangan. Kitobda, insonning o'ziga va boshqalarga qarshi muhabbat, hurmat, xushmuomala, halol va haromga e'tibor berish, vaqtlarni yaxshi ishlatish, to'g'ri so'z bo'lish, ota-onaga hurmat qilish, qing'ir yo'ldan yurish va buzg'unchilik qilishdan saqlanish kabi mavzularni o'z ichiga oladi.

⁵ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Al-Adab_al-Mufrad#cite_note-jacb1-1.

⁶ <https://n.ziyouz.com/kutubxona>

⁷ Olim Abul-Abbos as-Sanadiy Ahmad Razzuqning "Hoshiyat Sahih al-Buxoriy"asari 58-b.



"Al-Adab al-Mufrad" asari, insonning toplumda adabiyotga, axloqiy qoidalarga va o'zaro munosabatlarga ega bo'lishi talab qilinadigan islomiy amalga muvofiqligini ko'rsatadi. Ushbu kitob, musulmonlar uchun yaxshi adabiyotlar ketma-ketligida o'z o'rnini egallaydi va islomiy adabiyot o'qituvchilari, o'quvchilar va qiziqarli islomiy adabiyot oluvchilar uchun foydali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Imom al-Buxoriyning "Al-adab al-Mufrad" asari ,2015.– 26 bet
2. JOBIR ELOV" IMOM BUXORIYNING "AL-ADAB AL- MUFRAD" ASARINING MOHIYATI", 2023.- 9 bet
3. Olim Abul-Abbos as-Sanadiy Ahmad Razzuqning "Hoshiyat Sahih al-Buxoriy"asari,2019. – 52 bet
4. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Al-Adab_al-Mufrad#cite_note-jacb1-1.
<https://n.ziyouz.com/kutubxona>
5. <https://www.mirarab.uz/>
6. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
7. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
8. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
9. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
10. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
11. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
12. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
13. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
14. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

